

BOLALARNI TEVARAK ATROF BILAN TANISHTIRISHDA ESTETIK DIDNI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI

TDPI talabasi. Sultonxonova Maftuna

TDPI o‘qituvchisi: Mamatmo‘minova Muhabbat

Annotatsiya: *Maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida borliq va unga tutash hodisalar va tabiatni sevishta qaratilgan holatlarni ko‘rish mumkin. Bola tarbiyasida tabiatning o‘z o‘rni borligi va undan oqilona foydalanishni tushuntirish zarurligi alohida to‘xtalib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *Maktabgacha ta‘lim, nazariya, tabiat, atrof-muhit, qadriyat, asos.*

Annotation: *Preschool children can be seen in the presence and connection of events and situations aimed at the love of nature. Particular attention was paid to the role of nature in the upbringing of children and the need to explain its rational use.*

Key words: *preschool education, theory, nature, environment, value, basis.*

Аннотация: *Дошкольники могут увидеть события, происходящие в них и вокруг них, и любовь к природе. Особое внимание уделялось роли природы в воспитании детей и необходимости разъяснения ее рационального использования. Особое внимание уделялось роли природы в воспитании детей и необходимости дальнейшего транспорта.*

Ключевые слова: *дошкольное образование, теория, природа, среда, ценность, основа.*

Ekologiya tirik organizmlarga to‘gridan-to‘g‘ri ta‘sir etuvchi muhitning ayrim bir tarkibiy qismidir. Biroq odamlarga moddiy ne‘matlar ishlab chiqarishi uchun muayyan tabiiy sharoitlar talab qilinadi. Tabiatning jamiyat bilan yaqindan aloqa bog‘laydigan, uning taraqqiyotiga ma‘lum darajada ta‘sir ko‘rsatadigan qismi atrof-muhit deb ataladi. Yerning ustki qatlami va yer osti boyliklari, iqlim va boshqa shu kabilar atrof muhitni tashkil etadi. Atrof-muhit insonning moddiy ne‘matlar ishlab chiqarish faoliyati uchun doimiy, abadiy va zaruriy shart-sharoitdir. Ayniqsa, insonning tabiat quchog‘ida bo‘lishi uni ruhan tetiklashtirib, mehnat qobiliyati va ijodiy faoliyatini oshiradi.

Ma‘lumki, tabiat insoniyat uchun bebaho qadriyatdir. Tabiat, tu‘g‘ilish, yashash, o‘rish, faoliyat maydoni hisoblanadi. Inson tabiat bilan birga yashaydi, o‘radi, rivojlanadi. Insoniyat tabiatga ta‘sir etibgina qolmasdan, unga bevosita bog‘liq hamdir. Tabiatga bog‘liq omillar texnika, iqtisodiy ekologik munosabatlarni ham belgilaydi. Ana shu holat kishilarning tabiat, atrof-muhitga bo‘lgan munosabatlarni muvofiqlashtirish zarurligini taqozo etadi. Bolalarni ilk yoshidan hayvonot olami bilan tanishtirish orqali ularga mehr uyg‘otish, jonsiz va jonli tabiatni muhofaza qilish o‘rgatib boriladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni tabiat bilan tanishtirishning mazmuni va uni tanlash tamoyillari. Ekologik ta'lim-tarbiya tizimi asoslariga tabiat yaxlitligi hamda atrof muhitning inson tomonidan o'zgartirilishi haqidagi tasavvurlar qo'yilgan. Bunda tabiatni muhofaza qilishga yo'naltirilgan ta'lim jarayoni oliy o'quv yurtlarida hozirgi zamon ommaviy axborot vositalaridagi uzluksiz jarayon sifatida qaraladi. U umumiy vazifalar bilan uyg'unlashadi hamda mutaxassislik tayyorgarligi bilan bog'liq holda tabaqalashtiriladi. Uning umumiy nazariy ko'rsatmalari o'quv rejasining turli qismlarida aks etgan bo'lib, ma'ruza matnlari, elektron darsliklar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari mazmunida o'z ifodasini topadi.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishning jarayoni har tomonlama rivojlangan shaxs ma'naviy qiyofasini kamol topish jarayonining muhim va tarkibiy qismidir. U bolalarda milliy va umuminsoniy qadriyat sifatida tabiatga ongli munosabat, tabiat zaxiralarini saqlash va ko'paytirishga oid mas'uliyat tuyg'usi, ekologik muammolarni amaliy hal qilishdagi ko'nikmalarning rivojlantirilishini o'zida qamrab oladi.

Sayyoramizda jumladan, respublika hududida vujudga kelgan ekologik vaziyat ta'lim-tarbiya tizimi oldiga quyidagilarni hal etishni muhim vazifa etib qo'yadi, ular:

Bolalarning tabiatga ongli munosabatlari, tabiat komponent-larini yaxlitlikda va o'zaro aloqadiligini his etish;

tabiatning bolalar ekologik madaniyatini belgilab beradigan vosita sifatida namoyon bo'lishi;

atrof muhitga munosabatni ma'naviy madaniyatning ajralmas qismi ekanligini anglash;

tabiat talabani ekologik madaniyatini shakllantirishi uchun asosiy omil ekanligini tushunish;

atrof muhitga nisbatan bolalarni tabiat bilan tanishtirishning shakllantirishda bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonida atrof muhitni muhofaza qilishni ekologik qadriyat sifatida anglab etishlariga ilmiy-amaliy jihatdan sharoit yaratish;

bolalarni tabiat bilan tanishtirishning shakllantirishning maqsad va vazifalarini aniq belgilab olish, uning amaliyotga yo'naltirilganligini tushunish;

ekologik muammoga umummilliy, umuminsoniy, ijtimoiy muammo sifatida yondashish kabilar.

Bizning fikrimizcha Bolalarga o'rgatiladigan ekologik bilim mazmuni o'z ichiga quyidagilarni qamrab olishi lozim:

Bolalar ongida olamning ilmiy manzarasini shakllantirish;

tabiat va jamiyat o'rtasidagi ma'lum bo'lgan ekologik bilimlar ahamiyatini ilmiy-amaliy jihatdan yoritib berish;

bolalar tomonidan ekologik qonuniyatlarning o'zlashtirilishiga erishish;

tabiatda sodir bo'ladigan turli xildagi fojialarni anglash, ularning mohiyatini bilib olish, ekologiyaga oid ta'lim vazifalarini ifodalash, kuzatish va tajribalarni rejalashtirish hamda amalga oshirish, ekologiyaga oid nazariy-amaliy g'oyalarni oydinlashtira olish, ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalana olish malakalarini hosil qilish;

tabiatga qadriyat sifatida qarash tuyg'usini uyg'otish va madaniyatini shakllantirish, tabiatni muhofaza qilish va uning boyliklaridan unumli foydalanishni takomillashtirish;

Respublika hududidagi biologik xilma – xillikni bilishga imkon beradigan nazariya va g'oyalarni o'rganishni tashkil etish;

ekologiya sohasidagi muayyan bilimlar hajmini, tasavvur va tushunchalar doirasini ilmiy-amaliy jihatdan ishlab chiqish;

atrof muhitni muhofaza qilish, uning zahiralardan unumli foydalanishga o'rgatish;

maktabgacha yoshdagi bolarni tabiat bilan tanishtirish orqali etetik, aqliy, axloqiy jihatdan tarbiyalash, jismoniy rivojlantirish barcha zamonlarda ham o'ta dolzarb muammolardan hisoblangan. Tabiat bilan tanishish insonni ma'naviy kamolotga yetkazuvchi jarayon bo'lib, uni barcha salbiy xatolardan saqlaydi. Natijada uning xulqiy go'zalligi ortadi. Shu sababdan ham tabiat bilan tanishtirish orqali ta'lim-tarbiya jarayoni uzoq tarixga ega. Shu nuqtai nazardan O'rta Osiyo xalqlari tabiatni muhofaza qilish sohasida boy an'anaga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. STEAM-ТЕХНОЛОГИЯ КАК ИННОВАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ДОШКОЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ С Абдумажитова - Innovations in Technology and Science Education, 2023

2. МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА STEAM ТЕХНОЛОГИЯСИ АСОСИДА О'QUV ЖАРAYONINI ТАШКИЛ ETISH ЖАРAYONI AS Abduqosimovna - INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 2023

3. ИГРА ДЛЯ ОЗНАКОМЛЕНИЯ ДОШКОЛЬНИКОВ С ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРОЙ ТЕХНОЛОГИЙ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ М Жовлиева, СА Абдумажитова - INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 2023

4.PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL CHARACTERISTICS SPECIFIC TO THEIR AGE IN FORMING THE INTELLECTUAL ABILITY OF THE STUDENTS ON THE BASE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES AG Majitovna Новости образования: исследование в XXI веке 1 (5), 414-418

5.PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL CHARACTERISTICS SPECIFIC TO THEIR AGE IN FORMING THE INTELLECTUAL ABILITY OF THE STUDENTS ON THE BASE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES AG Majitovna Новости образования: исследование в XXI веке 1 (5), 414-418

6.INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TARBIYALANUVCHILARNI INTELLEKTUAL QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISHDA ULARNING YOSHIGA XOS BO'LGAN PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI AG Majitovna

7.МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI МАКТАБ ТА'LIMIGA TAYYORLASHDA IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH AG Majitovna INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM 3 (29), 42-45

8.МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA MEHNAT TARBIYASINI SHAKLLANTIRISH MAZMUNI AG Majitovna, EX Xoltorayevna INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM 3 (29), 46-52

9.МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARGA TALIM-TARBIYA BERISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARINI QOLLASH ASOSIDA BOLALARNING IJODIY FAOLLIGINI OSHIRISH SAMARADORLIGI AK Xamrayevna INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM 3 (29), 62-66

10.МАКТАБГА ТАЙЁРЛОВ ГУРУҲИ БОЛАЛАРИНИ МАКТАБ ТАЪЛИМИГА ТАЙЁРГАРЛИГИНИНГ MAZMUNI GU Холбоева - INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 2023

11.БОЛАЛАРИНИ МАКТАБ ТАЪЛИМИГА ПСИХОЛОГИК ТАЙЁРГАРЛИГИ GU Холбоева - Новости образования: исследование в XXI веке, 2022

12. Формирование трудового воспитания у детей дошкольного возраста GU Холбоева, РЖ Окбоева - Евразийский научный журнал, 2018

13.SHARQ ALLOMALARINING YUKSAK G'OYALARI BOLA TARBIYASINING ASOSI SIFATIDA. S Sharapova - INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND ..., 20223.

14.SHAXS SHAKLLANISHIDA OILAVIY MUNOSABATLARNING AHAMIYATI.MA Suyunova - Eurasian Journal of Academic Research, 2022 - in-academy.uz

15. Model Developing Communicative Speech Activity at Early Age Sh. Kadirova - Eastern European Scientific Journal, 2019

16.ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ДЕТЕЙ С АФФЕКТИВНЫМ ПОВЕДЕНИЕМ ШХ Кадирова - Вопросы педагогики, 2018

17.МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA MILLIY G'URURNI SHAKLLANTIRISHDA OILANING TUTGAN O'RNI SHX Qodirova - Перспективы развития научных исследований в 21 ..., 2016

18. МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАР РИВОЖЛАНИШИДА ЎЙИННИНГ РОЛИ ЮД Курбонова INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM 3 (29), 80-84

19.МЕТОДЫ И ПРИЕМЫ ОБУЧЕНИЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА ЮЖ Курбонова EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY, 69-71